

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7832174>

**Oxunova Mohigul Nusratovna**

*Oltiariq tumani Bo'rbonliq qishlog'i 12 mакtab o'qituvchi  
Tasviriy san'at fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Usbu maqolada mamlakatimizda ta'lism sohasiga berilayotgan imkoniyatlar, Yangi O'zbekistonning bунyodkorlari kim bo'lishi kerakligi, maktabgacha ta'lism muassasasi, maktab, о'rta maxsus ta'lism va Oliy ta'limgning vazifalari, dunyoning nufuzli ta'lism muassasalari qatoriga chiqish to'g'risida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'z:** *Kvota, islohot, globallashuv jarayoni, mexanizm, elektron ta'lism, platforma, Konsepsiya, raqamli texnologiya, innavatsiyon infratuzilma, kredit-modul.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Muhtaram Shavkat Mirziyoyev 2021 yilning 31 avgust kuni Mustaqilligimizning 30 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan bayram tantanasidagi nutqida ham mustaqillikning ahamiyatiga alohida urg'u berdilar. Yangi O'zbekiston bog'ida tashkil etilgan tantanalar o'zgacha shukuhda o'tkazildi. Ayniqsa, bog'dagi Mustaqillik monumenti o'zining mustaqillikka erishish yo'lidagi tarixiy jarayonlarni to'liq aks ettirishi, tomoshabinda jarayon haqida aniq taassurotlar qoldirishi, o'zgacha salobat to'kib turishi bilan ahamiyatli bo'ldi. Yangi O'zbekistonni barpo etishda avvalo, inson huquqlarini ta'minlash, xalq davlatning birdan bir manbai ekanligini amalda ta'minlash, davlat boshqaruv tizimini isloh qilish, mamlakatimizning barcha sohalarda yangi tizimlarni joriy qilish, malakali mutahassislarni shakllantirish, xorijiy investrlarni jalg etish orqali inson qadrini oshirishga qaratilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'lism tizimini isloh qilish masalasiga alohida to'xtalib, "...agar biz ta'lismi o'zgartirsak, ta'lism insonni o'zgartiradi. Inson o'zgarsa - butun jamiyatimiz o'zgaradi", - degan noyob fikrlarini bildirdilar. Darhaqiqat, Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi islohotlarning bosh ijrochisi ham biz o'zimiz, O'zbekiston fuqarolari. Islohotlar natijasi ham bevosita fuqarolarimiz hayotini farovon etish uchun xizmat qiladi. Bu jarayonda yuksak bilim va salohiyatga ega kadrlar hal qiluvchi kuch sifatida maydonga chiqadilar. Uzlusiz ta'limgning sifatli tizimi aynan shunday malakali va sifatli mutaxassislarni yetkazib bera oladi.

Bizga ma'lumki, barcha ta'lism (maktabgacha, maktab, о'rta maxsus va oliy ta'lism) muassasalarda sifatli mutaxassislar etishib chiqishlari uchun eng avvalo oliy ta'limga kuchli e'tibor qaratilmog'i lozim. Sababi barcha ta'lism muassasalar uchun mutaxassislarni oliy ta'lism muassasalari tayyorlab beradi. Buning uchun juda katta sohalarga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidan boshlanishi globallashuv jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Bugungi kunda mamlakatimizdagi yirik shaharlaridan tortib, chekka tumanlar, qishloq va mahallalarimizda yangi zamonaviy maktabgaha ta’lim muassasa(MTM)lari reja asosida barpo etilmoqda. Bunda davlatimiz rahbarining sa’yi xarakatatlari orqali imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. Natijada qisqa besh yil ichida mamlakatimizda MTMlari soni 3,5 barobar oshib, davlat va xususiy sheriklik mexanizmi joriy etilishi tufayli 223 mingdan ortiq o‘ringa ega bo‘lgan 7 ming 400 ta xususiy MTMlari tashkil qilindi, 20 mingga yaqin yangi ish o‘rni yaratildi, bog‘cha yoshidagi bolalarni qamrab olish darajasi 28 foizdan 60 foizga yetgani ana shunday amaliy harakatlarning natijasidir.

Maktab ta’limini tubdan yaxshilash va uning sifatini oshirish, ustozlarga munosib sharoit yaratish borasidagi islohotlar jadal davom etmoqda. Ya’ni:

- yangi maktablarni qurish, qolganlarini mukammal ta’mirlash va moddiy-texnik bazasini yaxshilash;
- yagona “elektron ta’lim” platformasini joriy etish;
- barcha maktablarga optik tolali internet tarmogini olib kirish;
- fan olimpiadalar va xalqaro fan olimpiada g’oliblariga munosib moddiy rag’batlantirish;
- barcha viloyatlarda maxsus Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar, sport, musiqa va san’at maktablari tashkil etilishi;
- olis tuman maktablariga borib dars beradigan o‘qituvchilarning oyligiga 50 foiz, boshqa viloyatga borib ishlasa - 100 foiz ustama haq to‘lash islohotlar samaradorligini ta’minlab beradi.

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajaradi. So‘nggi yillarda ta’lim tizimining barcha bosqichlari, jumladan, oliy ta’lim tizimini rivojlantirish, mustaqil fikrlovchi, bilimli mutaxassislarini tayyorlash masalasida qator amaliy ishlar qilinmoqda. Ya’ni:

- Konsepsiya asosida o‘qishga kirishdaadolatli va shaffof tizimni yaratildi;
- Bitiruvchi yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi 2016 yilgi 9 foizdan 28 foizga yetkazildi;
- Mamlakatimizda keyingi 5 yilda 64 ta yangi oliy ta’lim muassasasi tashkil etilib, ularning soni 146 taga yetkazildi;
- Qabul kvotasi 3 barobarga oshirildi;
- Ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun alohida kvotalarning ajratilishi yo‘lga qo‘yildi;

- Shuningdek, OTMlarga “Mehribonlik” uylari bitiruvchilari, kam ta’minlangan oilalarga mansub xotin-qizlar hamda boshqa muammoli yoshlar uchun qo’shimcha davlat grantlarining ajratildi;

- Mamlakatimizdagi etakchi oily ta’lim muassasalariga bosqichma-bosqich moliyaviy va akademik mustaqillik berildi;

- Oliy ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va dunyoning yetuk o‘quv yurtlari bilan akademik almashinuvini yo‘lga qo‘yish maqsadida 2021-2022 o‘quv yildidan aksariyat OTMlar kredit-modul tizimiga o’tildi;

- Ta’lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish natijasida ta’lim jarayonini tashkiliy jihatdan osonlashtirish, optimallashtirish hamda sifatli ta’limni ta’minlashga xizmat qilinmoqda;

- Mamlakatimizdagi OTMlari hamda xorijiy OTMlar bilan integratsiyalashuv bir necha marta osish natijasida 60 dan ortiq xalqaro qo’shma ta’lim dasturlari tashkil etilib, yetuk xorijiy OTM o‘quv dasturlari o’zlashtirilmoqda;

- Mamlakatimizdagi etakchi OTMlarni xalqaro nufuzli reytinglarda yuqorilashi uchun kompleks dastur ishlab chiqildi va dastlabki qadam sifatida 10 ta OTMni TOP-1000 talikka, O’zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini esa 500 talikga kiritish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda;

- Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi;

- Aholi fikrlarini o‘rgangan holda, sirtqi va kechki ta’lim shakllarini qayta tiklanganligi;

- Talabalarni ijtimoiy himoya qilishda ham mutlaqo yangicha tizim yo‘lga qo‘yildi. Ya’ni, OTMlarda "temir daftar"ga kiritilgan oila farzandlari, "ayollar daftari" va "yoshlar daftari"ga kiritilgan talabalarning shartnoma pullarining bir qismi to‘lab berilishi;

- Yoshlarning ta’lim-tarbiyasi uchun qo’shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni o’z ichiga olgan beshta muhim tashabbusni amaliyatga tadbiq etilishi;

- Nufuzli xalqaro ilmiy jurnallardagi maqolalarga iqtiboslik ko’rsatkichlari oshishi, respublika ilmiy jurnallarini xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazasiga kiritilishini ta’minlash;

- Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish. Yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalg etish, ilm-fanning innavatsiyon infratuzilmasini shakllantirish;

- Doktorlik dissertatsiyalarni himoya qiladigan ixtisoslashtirilgan kengashlarni nafaqat markazdagi OTMlarda balkim viloyatdagi OTMlariга ruxsatberilishi;

- Oylik ish haqini keskin oshirilishi orqali ustozlarning mavqeyini oshirish;

- Oily ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta’minlashning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish;

- Talabalarni turar joylar bilan ta'minlash, yangisini qurish va ushbu o'quv yildan boshlab ijarada turuvchi talabalarining 50% ijara pulini to'lab berilishi;

- Oliy ta'lidan keyingi ta'lismi ham chuqur islohotlarni amalga oshirish maqsadida ikki bosqichli tizim yaratilib, tayanch doktorantura uchun qabul kvotalarini keskin oshirilishi natijasida ilmiy ish qiladiganlar soni ortmoqda.

Yuqoridagisohalargae'tiborniqaratishorqalimamlakatimizdaetakchiilmahliningko' payishiorqalixalqxo'jaliginingbarchatarmoqvasohalarbo'yichailmiy-amaliyg'oyalarnitadbiqetishnatijasadamamlakatimiztaraqqiyotiuchunmunosibxizmatqo'shadi.Shuningdek, ta'lismi tizimini yanada isloh qilish maqsadida quyidagi sohalarga e'tibor qaratilishi orqali kerakli natjalarga erishiladi:

- Qabul kvotalarini oshirishni davom ettirish va maktab bitiruvchilarining OTM kirish qiziqishi borlarini 50-60 foizga yetkazish, qolganlarini o'z qiziqishlari bo'yicha xalq xo'jligi sohalariga ishga joystackish;

- Oliy ta'lismi muassasalari tom ma'noda ilm-fan markaziga, mamlakat universitetlar qoshida yuksak moddiy-texnikjihozlangan ilmiy laboratoriyalarni tashkil etish;

- Oliy ta'lismi tizimida ham xususiy oliy ta'lismi tashkilotlarini ko'paytirish va ularga davlat OTMlari bilan sof raqobat muhitini shakllantirish;

- Yangi dunyo talab qiladigan ta'lismi yo'nalishlarini ochish;

- Zamonaviy darslik va o'quv qo'llanmalari yaratishni rag'batlantirish, tan olingan xorijiy o'quv adabiyotlarini tarjima qilish tizimini yo'lga qo'yish;

- OTMlarida o'tilayotgan nazariy bilimlarni amaliyat bilan uzviy bog`lash.

Yuqoridagi ustuvor yo'nalishlar, ta'lismi va fanga berilayotgan e'tiborlarni amalga oshirish bo'yicha oliy ta'lismi muassasalarida ishlar tizimli yo'lga qo'yilishi natijasida raqobatbardosh (padagogika, aniq fanlar, tabiiy fanlar, ijtimoiy gumanitar va boshqa) mutaxassislar yetishib chiqishi, jahondagi etakchi OTMlar bilan akadem almashinuvini yo'lga qo'yish hamda mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlar yuritish orqali Yangi O'zbekistonni barpo etishda munosib hissa qo'shadilar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lismi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 2019 yil 8 oktyabr.

2.Yangi O'zbekiston strategiyasi. 2021.Sh.M.Mirziyoyev.